



GEN TEXNOLOGIYASI SOHASIDA MUALLIFLIK HUQUQINI HUQUQIY HIMOYA QILISH MEXANIZMLARI

Ilmiy rahbar: Umurzakova Nargisa Muxtarovna

Toshkent Davlat Agrar Universiteti "Huquqshunoslik" kafedrası dotsenti

[Mobil: +998990129077. E-mail: nargisau71@gmail.com]

Meliboyeva Farida Murodilla qizi

Toshkent Davlat Agrar Universiteti "Agroiqtisodiyot, logistika va xizmatlar" fakulteti Yurisprudensiya yo'nalishi 2-kurs talabasi [Mobil: +998889051305. E-mail: meliboyevafarida004@gmail.com]

Annotatsiya: Maqolada gen muhandisligi sohasidagi intellektual mulk ob'ektlarini, xususan, mualliflik huquqi doirasida himoyalaniishi mumkin bo'lgan elementlarni huquqiy tartibga solish masalalari tahlil qilinadi. Genetik ketma-ketliklar va modifikatsiyalangan organizmlarni huquqiy himoya qilishda patent va mualliflik huquqi o'rtasidagi farqlar, milliy va xalqaro qonunchilikdagi bo'shliqlar hamda ushbu sohani takomillashtirish mexanizmlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: gen muhandisligi, mualliflik huquqi, intellektual mulk, bioetika, DNK ketma-ketligi, litsenziyalash, TRIPS bitimi.

Аннотация: В статье анализируются вопросы правового регулирования объектов интеллектуальной собственности в области генной инженерии, в частности, элементов, которые могут быть защищены в рамках авторского права. Освещаются различия между патентной формой охраны и авторским правом при защите генетических последовательностей и модифицированных организмов, пробелы в национальном и международном законодательстве, а также механизмы совершенствования данной сферы.



Ключевые слова: генная инженерия, авторское право, интеллектуальная собственность, биоэтика, последовательность ДНК, лицензирование, Соглашение ТРИПС.

Abstract: The article analyzes the legal regulation of intellectual property objects in the field of genetic engineering, specifically elements that can be protected under copyright law. It highlights the differences between patent and copyright protection for genetic sequences and modified organisms, addresses gaps in national and international legislation, and outlines mechanisms for improving this field.

Keywords: genetic engineering, copyright, intellectual property, bioethics, DNA sequence, licensing, TRIPS Agreement.

KIRISH. Mualliflik huquqini ta'minlashda jahonga o'rnak bo'ladigan mamlakatlar tajribasiga qaraydigan bo'lsak, ushbu sohadagi qonunchilik normasi mexanizmlarini ta'minlashda mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlarning alohida o'ringa ega bo'lib, mualliflik haqlarini yig'ish va taqsimlashning eng samarali vositasi hisoblanadi. Zero, bunday tashkilotlarning asosiy vazifalari qatorida o'z a'zolari hisoblangan ijodkorlarning asarlari reyestri va undan foydalanuvchilar hisobini yuritish, tegishli mualliflik haqi (gonorar)ni yig'ish hamda taqsimlashdan iborat. Shuni ta'kidlash kerakki, tarixda dastlabki bu kabi institut dastlab Fransiyada paydo bo'lgan. Keyinchalik, ya'ni XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Yevropaning boshqa mamlakatlarida ham shu kabi jamoat birlashmalari faoliyati yo'lga qo'yila boshlandi. Mualliflik huquqini jamoaviy boshqarish instituti tufayli mualliflik huquqlari individual asosda amalga oshirilishi mumkin bo'lmagan yoki qiyin bo'lgan mutlaq mulk huquqlarini amalga oshirish mumkin. Aynan mazkur institutning samarali faoliyat ko'rsatishi O'zbekistonning mualliflik huquqi sohasida imzolagan shartnomalari doirasidagi majburiyatlarini bajarish imkoniyatini oshirishda ham muhim o'rin tutadi. Mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlarga qo'yiladigan asosiy talablardan biri bu



– ular faoliyatidagi shaffoflik va yig‘ilgan mualliflik haqlarini belgilangan shartlarda va muddatda to‘lanishi hisoblanadi. Shunga ko‘ra, so‘nggi yillarda O‘zbekistonda ham bu kabi tashkilotlar soni ortib borayotganligi munosabati bilan Hukumatning “Mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va ular faoliyatini tartibga solish to‘g‘risida”gi qarorini qabul qilish va ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi aynan mualliflik sohasidagi vakolatli organga yuklatilishi har tomonlama maqsadga muvofiq bo‘ladi. Xususan, Belarus Respublikasi, Singapur, Filippin kabi mamlakatlarda intellektual mulk bo‘yicha vakolatli organi tomonidan mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlarni ro‘yxatdan o‘tkazish (akkreditatsiya) tajribasi mavjud. Shu bilan birga, taklif etilayotgan ushbu qarorda mualliflik huquqi egalarining manfaatlarini himoya qilish maqsadida mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlar ta‘sischilarining minimal soni hamda ustav kapitalini belgilab o‘tilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Zero “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi Qonunda ham ushbu tashkilotlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish shartlari va tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanishi aytib o‘tilgan

¹. Hozirda mamlakatimizda bir qator bu turdagi jamoat birlashmalari faoliyat boshlagan bo‘lib, bugungi kunga kelib ularning soni (6 ta) o‘sib, shu bilan birga, faoliyati takomillashib bormoqda. Xususan, birgina 2019-yilda 3 ta mualliflik jamiyati O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan nodavlat notijorat tashkiloti sifatida ro‘yxatdan o‘tkazildi². Taqqoslash uchun bunday tashkilotlar Ozarbayjonda 2 ta, Turkiyada 28 ta, Tojikistonda 2 ta, Qozog‘istonda 8 tani tashkil etmoqda, Qirg‘izistonda esa Qirg‘izpatent tomonidan mualliflar va huquq egalari uchun foydalanuvchilardan mualliflik haqlarini yig‘ish va taqsimlash ishlari amalga oshiriladi. Shuni alohida ta‘kidlash lozimki, bir qator mamlakatlarda mualliflik

¹ O‘zbekiston Respublikasining “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-42-son. 20.07.2006 y.

² O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk departamenti rasmiy hisoboti datalari (2019–2022 yy.).



jamiyatlari hattoki, ishchilar kasaba uyushmalaridan ham ilgari tuzilgan. Bugungi kunga kelib bu kabi tashkilotlarning mintaqaviy va xalqaro assotsiatsiyalari ham faoliyat yuritmoqda. Bular sirasiga yozuvchilar va bastakorlar birlashgan xalqaro konfederatsiyasi (CISAC), nusxa ko‘chirish tashkilotlari xalqaro federatsiyasi (IFRRO), Ijrochilarning Yevropa tashkilotlari assotsiatsiyasi (AEPO) kabilarni kiritish mumkin. Ma’lumot sifatida e’tibor qaratadigan bo‘lsak, CISAC 130dan ortiq mamlakatdan 250 dan ortiq mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlarini birlashtirgan tashkilot bo‘lib, 2017-yilda ushbu tashkilot tarkibiga kiruvchi jamoat birlashmalari tomonidan yig‘ilgan mualliflik haqlari (gonorar) miqdori 447,8 mln AQSH dollarini tashkil etgan³. Mualliflar va huquq egalari o‘zlarining qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi qonuniga ko‘ra, fan, adabiyot va san’at asarlarining mualliflari, ijrochilar, fonogrammalarni tayyorlovchilar yoki boshqa huquq egalari o‘z mulkiy huquqlarini amalga oshirish maqsadida o‘z mulkiy huquqlarini jamoaviy asosda boshqaradigan tashkilotlar tuzishga haqlidir. Xuddi shunday jamoat birlashmalaridan biri O‘zbekiston Respublikasi mualliflik va turdosh huquqlarni himoya qilish jamiyati 2019-yilda tashkil etilgan bo‘lib, tegishli tartibda O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2019-yil 7-sentyabrda bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan. Shuningdek, ushbu qonunning 58-moddasiga asosan bu kabi tashkilotlar quyidagi huquqlarga ega:

- to‘lanadigan haq miqdorini va shartnomalarning tuzilishiga doir boshqa shartlarni foydalanuvchilar bilan kelishib olish;
- bunday tashkilot boshqarayotgan huquqlardan foydalanish uchun foydalanuvchilar bilan shartnomalar tuzish;

³ CISAC Global Collections Report 2018 (2017 data). – Paris: International Confederation of Societies of Authors and Composers, 2018. – P. 12-14.



- tashkilot to‘lanadigan haqni yig‘ish bilan shartnoma tuzmasdan shug‘ullangan taqdirda, bunday haq miqdorini foydalanuvchilar bilan kelishib olish;
- shartnomalarda nazarda tutilgan haqni yig‘ish, taqsimlash va to‘lash;
- bunday tashkilot o‘zi boshqarayotgan huquqlarni himoya qilish uchun zarur bo‘ladigan har qanday yuridik harakatlarni bajarish;
- shunday tashkilot tomonidan belgilangan tartibda asarlarni va (yoki) turdosh huquqlar obyektlarini, shuningdek asarlarga va (yoki) turdosh huquqlar obyektlariga bo‘lgan huquqlarni boshqa shaxsga o‘tkazish to‘g‘risidagi shartnomalarni ro‘yxatga olishni va (yoki) saqlashga topshirishni amalga oshirish.

Mualliflik huquqi va genetik kod o‘xshashligi. Nega gen muhandisligida mualliflik huquqi mexanizmlari haqida gapirilmoqda? Genetik muhandislar tomonidan yaratilgan sun‘iy DNK ketma-ketliklari mohiyatan ma‘lum bir axborot (kod) majmuasidir. Bu o‘xshashlik genetik kodni kompyuter dasturlari bilan qiyoslashga imkon beradi. Ma‘lumki, O‘zbekiston qonunchiligiga ko‘ra, kompyuter dasturlari adabiy asarlar kabi mualliflik huquqi bilan himoyalanaadi. Agar genetik zanjir insonning ijodiy faoliyati natijasida yuzaga kelgan o‘ziga xos “matn” sifatida ko‘rilsa, uni mualliflik huquqi orqali himoya qilish mantiqiy ko‘rinadi. Biroq, bu erda jiddiy huquqiy to‘qnashuv yuzaga keladi: mualliflik huquqi faqat g‘oyaning ifodalanish shaklini himoya qiladi, uning mazmuni yoki funksional vazifasini emas. Gen muhandisligida esa asosan natijaning funksional ahamiyati (masalan, ma‘lum bir oqsilni ishlab chiqarish qobiliyati) muhim hisoblanadi.

Muammolar va istiqbollar

Bugungi kunda gen muhandisligi mahsulotlarini himoya qilishda asosan patent tizimidan foydalaniladi. Lekin patent olish jarayoni uzoq davom etishi va qat‘iy talablarga (yangilik, ixtirochilik darajasi) egaligi sababli, ko‘plab tadqiqotchilar



mualliflik huquqi kabi “avtomatik” himoya mexanizmlariga ehtiyoj sezmoqda. **Maqolaning maqsadi** — genetik ma’lumotlarni mualliflik huquqi ob’ekti sifatida tan olishning huquqiy imkoniyatlarini va bu boradagi xalqaro tajribani O‘zbekiston qonunchiligiga implementatsiya qilish masalalarini o‘rganishdan iborat.

Jamiyat hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasida fan, adabiyot, sanat hamda mualliflik va turdosh huquqlarni himoya qilish bo‘yicha eng ko‘zga ko‘ringan tashkilotlardan bo‘lib, o‘z faoliyati davomida ko‘plab yutuqlarga erishib kelmoqda. Xususan, ushbu jamiyat azolari O‘zbekistondagi mualliflik huquq sohasidagi eng yirik birlashma va tashkilotlar hisoblanib, bular qatoriga O‘zbekiston Kinematografiya agentligi, O‘zbekiston Bastakorlar uyushmasi, O‘zbekiston Badiiy Akademiyasini kiritish mumkin. Jamiyat bugungi kunda bir qator xorijiy va xalqaro tashkilotlar bilan bitim imzolab faoliyat olib bormoqda. Xususan “Qirg‘izpatent” va mualliflar va ijrochilar xalqaro konfederatsiya (SISAC) shuningdek, jamiyat butunjahon intellektual mulk tashkilotining “WIPO Connect” axborot tizimini O‘zbekistonda faoliyatini yo‘lga qo‘ygan. Bugungi kunda jamiyat tomonidan muallif va ijrochilarning mulkiy huquqlarini to‘laqonli tarzda himoya qilish maqsadida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, kafe, bar, restoran kabi umumiy ovqatlanish muassasalarida jamiyat a‘zolarining huquqlari himoyasini tashkil etish va asarlaridan foydalanilganlik uchun gonorarlarni yig‘ish bo‘yicha tegishli dasturiy ta‘minot vositasida yordamida ishlar tashkil etilgan. Ya’ni musiqiy asarlardan foydalanilganlik uchun mualliflik haqini to‘lash bo‘yicha shartnomalar tuzilmoqda. Shuningdek, jamiyat a‘zosi bo‘lgan shoir U.Azim va bastakor T.Asqarning buzilgan mualliflik huquqlarini himoya qilish hamda boy berilgan foydani undirish maqsadida tegishli sudlarga da’vo arizalari kiritilgan. Xususan, bu yo‘nalishdagi AQSH tajribasiga qaraydigan bo‘lsak, mualliflik huquqi muhofazasi va himoyasining asosiy mexanizmlaridan biri bo‘lmish mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi 13 ta tashkilot faoliyat yuritmoqda: u yo‘nalishdagi tashkilotlarning ixtisoslashuvi ijobiy natija berishi katta ahamiyatga ega. Negaki,



Yevropaning 45% daromadi intellektual mulk sohasidan kelyotgan bir paytda mamlakatimiz bu yonalishga juda kech etibor berdi. Togri, aytishimiz mumkin, intellektual mulk sohasi boyicha 1995-yildagi Fuqarolik kodeksining IV bolimi, 2006-yildan boshlab kuchga kirgan “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni himoya qilish togrida”gi qonun hamda shu kabi bir qancha qonunosti hujjatlar tasdiqlangan. Biroq ushbu normativ-huquqiy hujjatlarning real hayotimizga tatbiq qilinishi 2018-2019-yillardan boshlanmoqda.

Gen muhandisligi mahsullarini huquqiy himoya qilish masalasi faqatgina mualliflik huquqi bilan cheklanib qolmay, xalqaro miqyosda patent tizimi va ochiq ma'lumotlar balansi o'rtasidagi global bahslarga ham sabab bo'lmoqda. Chunonchi, **Biotexnologiya** — bu tobora murakkablashib borayotgan va kumulyativ xususiyatga ega asosiy texnologiyalar negizida yangi mahsulot hamda xizmatlar yaratiladigan jadal rivojlanayotgan sohadir. Genlarni sekvenirlash, ularning funksiyalari va mutatsiyalarini identifikatsiya qilish, genlarni tanlab ekspressiya qilish, tartibga solish yoki bloklash tizimlarini yaratish, oqsil tuzilmalari va ekspressiyasini prognozlash, genetik tuzilishning metabolizmga ta'sirini xaritalash hamda ulkan hajmdagi genetik ma'lumotlarni tahlil qilish imkoniyati “genomika inqilobi” deb nom oldi. Ushbu texnologiyalar hayot haqidagi fanlarning tez sur'atlar bilan rivojlanishiga xizmat qilib, inson salomatligini yaxshilashda ulkan istiqbollarni va'da qilmoqda. Biroq, genomika inqilobi intellektual mulk huquqlari (IMH) atrofidagi bahslarni qaytadan jonlantirdi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga a'zo davlatlar tadqiqot natijalarining keng tarqalishini rag'batlantirish uchun axborot hamda genetik ma'lumotlardan erkin foydalanishni ta'minlash zarurati bilan, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga kiritilgan investitsiyalardan daromad olish maqsadida ixtirolarni tijoriy himoya qilish ehtiyoji



o'rtasida muvozanatni saqlashga harakat qilmoqdalar⁴. Biotexnologiya sohasidagi yutuqlar dastlabki bosqichlardanoq intellektual mulk huquqlari tizimining chegaralarini sinovdan o'tkaza boshladi. Huquqiy sohadagi muhim burilish nuqtalaridan biri 1980-yilda AQSH Oliy sudining genetik modifikatsiyalangan bakteriyani patentlash bo'yicha qabul qilgan "Diamond v. Chakrabarty" qarori bo'ldi. Ushbu qarordan so'ng, biologik materiallar va ba'zi hayot shakllari ishtirokidagi ixtirolar dastlab Amerika Qo'shma Shtatlarida, keyinchalik esa boshqa mamlakatlarda ham patentlanishi mumkin bo'lgan ob'ektlar deb tan olindi. O'shandan beri IHTT mamlakatlari boshqa biotexnologik ixtirolarning patentga layoqatliligi masalasini hal qilishga majbur bo'lmoqdalar va eng jiddiy bahslar aynan genetik materiallarga patent berish amaliyoti ustida bormoqda.

METODOLOGIYA. Tadqiqotda qo'llanilgan tizimli-tarkibiy tahlil metodi gen muhandisligi mahsullarini shunchaki alohida biologik elementlar sifatida emas, balki muayyan ichki tuzilishga, funksional zanjirga va elementlararo murakkab aloqalarga ega bo'lgan yaxlit axborot tizimi sifatida o'rganishga imkon berdi. Tizimli tahlil genetik zanjir va kompyuter dasturiy ta'minoti (software) o'rtasida to'liq strukturaviy analogiya mavjudligini ko'rsatadi. Kompyuter dasturi binar kodlar yordamida yozilgan raqamli matn bo'lsa, genetik ketma-ketlik to'rtta nukleotid asos (A, T, G, C) kombinatsiyasidan iborat biologik matndir. Har ikkala tizimda ham elementlarning joylashuv tartibi qat'iy algoritmgaga bo'ysunadi. Kompyuter kodi kompyuter protsessoriga muayyan operatsiyani bajarish buyrug'ini berganidek, gen muhandislari tomonidan laboratoriyada sintez qilingan yoki tahrirlangan DNK zanjiri ham tirik hujayra uchun muayyan oqsil yoki moddani ishlab chiqarishga qaratilgan komandalar to'plamidir. Ya'ni, genetik kod mohiyatan tirik organizm funksiyasini boshqaruvchi dasturiy ta'minot hisoblanadi. Amaldagi

⁴ Genetic Inventions, Intellectual Property Rights and Licensing Practices: Evidence and Policies. – Paris: OECD Publishing, 2002. – P. 11-15. URL: oecd.org



milliy va xalqaro qonunchilikka ko‘ra, kompyuter dasturlari adabiy asarlar sifatida to‘g‘ridan-to‘g‘ri mualliflik huquqi bilan himoyalanaadi. Tizimli-tarkibiy yondashuv orqali ushbu mantiqiy zanjirni gen muhandisligiga ham tatbiq etish mumkin. Agar olim tabiatda mavjud bo‘lmagan gen kombinatsiyasini o‘z ijodiy mehnati mahsuli o‘laroq yangi ketma-ketlikda shakllantirsa, ushbu jarayon g‘oyaning o‘ziga xos shaklda ifodalanishi deb baholanishi lozim. Bu esa Bern konvensiyasining “avtomatik himoya” prinsipini genetik dasturlarga ham qo‘llash uchun huquqiy zamin yaratadi. Shuningdek, ushbu metod sub’ektiv ijodiy shaklni himoya qiluvchi mualliflik huquqi va ob’ektning funksional vazifasini himoya qiluvchi patent huquqi o‘rtasidagi ichki tizimli qarama-qarshiliklarni ham aniqlashga xizmat qildi. Gen muhandisligida natijaning funktsionalligi birlamchi bo‘lsada, texnologiyalarning tezkor rivojlanishi sharoitida mualliflik huquqining sodda va tezkor himoya mexanizmlari tizimli muqobil variant sifatida namoyon bo‘ladi.

Gen muhandisligi sohasidagi mualliflik huquqi va intellektual mulk himoyasi masalalari jahon huquqshunosligida “Bio-huquq” (Biolaw) va “Bio-etika” chorrahasidagi eng bahsli mavzulardan biri hisoblanadi. Ushbu mavzudagi adabiyotlar tahlilini uchta asosiy yo‘nalishda ko‘rib chiqish mumkin.

G‘arbiy Yevropa va AQSH huquqshunosligi tahlili. Mazkur sohadagi fundamental tadqiqotlar asosan AQSH va Yevropa Ittifoqi olimlariga tegishli. Masalan, Donna M. Gitter o‘zining ilmiy ishlarida genetik ketma-ketliklarni patentlash va mualliflik huquqi o‘rtasidagi farqlarni TRIPS bitimi kontekstida tahlil qilgan. Uning fikricha, genetik ma’lumotlarni mualliflik huquqi ob’ekti sifatida tan olish ularni “kompyuter kodi” sifatida ko‘rishga asoslanadi. Shuningdek, Yorum Koops va M. Bagli kabi tadqiqotchilar biotexnologik ixtirolarning huquqiy maqomini o‘rganishda mualliflik huquqining “avtomatik himoya” xususiyatiga e’tibor qaratishadi. Ular gen tahrirlash (CRISPR-Cas9) natijasida yaratilgan “yangi



matn” (DNK zanjiri) mualliflik huquqi bilan himoyalanishi kerakligini ilgari suradilar.

Rossiya va MDH davlatlari olimlarining qarashlari. Rossiyalik huquqshunos olimlardan I.A. Zenin va O.A. Gorodov intellektual mulk huquqi, xususan biotexnologiyalar sohasida keng ko‘lamli izlanishlar olib borishgan. O.A. Gorodov o‘zining tadqiqotlarida genetik ma‘lumotlarni mualliflik huquqi orqali himoya qilishning murakkabligini, chunki DNK ketma-ketligi faqat shakl emas, balki aniq funksional vazifani bajarishini ta’kidlaydi. N.V. Ivanov esa genetik dasturlarni kompyuter dasturlariga qiyoslagan holda, ularni mualliflik huquqi ob’ektlari tizimiga kiritish imkoniyatlarini nazariy jihatdan asoslab bergan.

O‘zbekiston milliy huquqshunosligidagi tadqiqotlar. O‘zbekistonda intellektual mulk huquqi bo‘yicha O. Oqyulov, I. Rustambekov va M.B. Usmonov kabi olimlar fundamental ishlar qilishgan. Professor O. Oqyulov intellektual mulk ob’ektlarining tasnifi va ularning fuqarolik-huquqiy maqomini belgilashda ijodiy faoliyat natijasi ekanligiga alohida urg‘u beradi. Biroq, aynan gen muhandisligini mualliflik huquqi nuqtai nazaridan tadqiq qilish O‘zbekiston huquq fanida hali shakllanish bosqichida. Milliy adabiyotlarda asosan genetik modifikatsiyalangan organizmlarning xavfsizligi va ularni patentlash masalalari ko‘tarilgan bo‘lsa-da, “genetik kod — mualliflik huquqi ob’ekti sifatida” degan qarash hali keng doirada tahlil qilinmagan.

Zamonaviy biotexnologiya va gen muhandisligining misli ko‘rilmagan sur‘atlar bilan rivojlanishi huquq tizimi oldiga yangi va murakkab vazifalarni qo‘ymoqda. Insoniyat genetik kodni “o‘qish” va “tahrirlash” imkoniyatiga ega bo‘lgan davrda, ushbu jarayon natijasida yaratilgan intellektual mahsulotlarni qanday himoya qilish masalasi nafaqat iqtisodiy, balki kuchli huquqiy ahamiyat kasb etadi. An’anaviy ravishda genetik kashfiyotlar patent huquqi ob’ekti hisoblansa-da,



so‘nggi yillarda gen muhandisligidagi ayrim ishlanmalarni mualliflik huquqi orqali himoya qilish nazariyasi va amaliyoti keng muhokama qilinmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining intellektual mulk sohasidagi siyosati bir necha muhim hujjatlarga asoslanadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasida har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, intellektual mulk huquqi qonun bilan muhofaza qilinishi kafolatlangan. Gen muhandisligi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishda Fuqarolik kodeksining 4-bo‘limi (“Intellektual mulk”) hamda “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi Qonun asosiy o‘rin tutadi. Xalqaro miqyosda esa mazkur soha “Intellektual mulk huquqining savdo jihatlarini bo‘yicha bitim” (TRIPS)⁵, “Adabiy va badiiy asarlarni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Bern konvensiyasi⁶ hamda Biotexnologik ixtiro ko‘rinishidagi ob‘ektlarni huquqiy himoya qilish⁷ bo‘yicha xalqaro standartlar bilan muvofiqlashtiriladi.

NATIJA. Biotexnologik ixtirolarni an’anaviy patent huquqi orqali himoya qilish va ularni mualliflik huquqi doirasiga olib kirishning samaradorlik ko‘rsatkichlari tizimlashtirildi. Ma’lum bo‘lishicha, patent tizimi uzoq muddatli ekspertiza, yuqori moliyaviy xarajatlar va jiddiy bioetik cheklovlar (tirik tabiat elementlarini monopoliya qilish global e’tirozlarga sabab bo‘lishi) bilan xarakterlanadi. Mualliflik huquqi tizimi esa ob‘ekt yaratilgan daqiqadan boshlab, Bern konvensiyasi asosida hech qanday rasmiyatchiliklarsiz xalqaro miqyosda tezkor va “avtomatik” himoyani ta’minlaydi. Bu tizimda faqat muallifning individual ijodiy kombinatsiyasi himoyalangani sababli bioetik e’tirozlar minimal darajaga tushadi.

⁵ Agreement on Trade-Related Aspects of Intellectual Property Rights (TRIPS Agreement), 1994
https://www.wto.org/english/docs_e/legal_e/27-trips.pdf

⁶ Berne Convention for the Protection of Literary and Artistic Works, 1886 (1971-yilgi Parij akti tahriri).
<https://www.wipo.int/wipolex/en/text/283698>

⁷ Genetic Inventions, Intellectual Property Rights and Licensing Practices: Evidence and Policies. – Paris: OECD Publishing, 2002 [oecd.org](http://www.oecd.org)



O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi va “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi Qonunida intellektual mulk ob’ektlarining tasnifi fan va texnika taraqqiyoti shiddatidan ortda qolayotgani ma’lum bo‘ldi. Xususan, milliy qonunchilikda bio-texnologik kodlar va genetik ma’lumotlarning mualliflik huquqi doirasidagi maqomi umuman tartibga solinmaganligi, bu esa mahalliy olimlar va laboratoriyalarning intellektual mehnat mahsulini tezkor himoya qilish imkoniyatini cheklayotganligi aniqlandi.

Mualliflik huquqini individual asosda amalga oshirish qiyin bo‘lgan gen muhandisligi kabi innovatsion sohalarda Mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlar (CMO) eng samarali vosita ekanligi ko‘rsatildi. O‘zbekistondagi mavjud 6 ta jamoat birlashmasi (xususan, 2019-yilda tuzilgan Mualliflik va turdosh huquqlarni himoya qilish jamiyati) faoliyati tahlil qilinib, ularning funksiyalarini kelajakda biotexnologik litsenziyalash va “open-source genetics” (ochiq genetik ma’lumotlar) tizimiga moslashtirish, shuningdek, davlat ro‘yxatidan o‘tkazish (akkreditatsiya) jarayonlarini intellektual mulk bo‘yicha vakolatli organga yuklash zarurati ilmiy jihatdan isbotlandi.

O‘zbekistonda ixtirolar uchun patent talabnomalari bir nechta asosiy texnik sohalar va bozorlarda to‘plangan;

Biotexnologiya: 40%

Kompyuter texnologiyalari: 20%

Tibbiyot texnologiyalari: 20%

Boshqa maxsus mashinalar: 20%

XULOSA. Gen muhandisligi va biotexnologiyalar asrida intellektual mulk ob’ektlarini huquqiy tartibga solish tizimi jiddiy transformatsiyani boshdan kechirmoqda. Olib borilgan ilmiy tadqiqot, adabiyotlar tahlili va xalqaro tajriba



o‘rganilishi natijasida quyidagi xulosalarga kelindi: Genetik zanjirlar (DNK/RNK) va modifikatsiyalangan organizmlarni an’anaviy patent huquqi orqali himoya qilish yuqori byurokratik to‘siqlar, qimmat moliyaviy xarajatlar va eng muhimi — bioetika hamda insoniyat umumiy merosi tamoyillariga zid kelishi sababli xalqaro miqyosda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. G‘arbiy Yevropa va AQSH huquqshunosligi doktrinasida gen tahrirlash (CRISPR-Cas9) jarayoni tobora “biologiyaning dasturlashishi” sifatida baholanmoqda. Sun’iy sintez qilingan genetik ketma-ketliklar o‘zining xarakteriga ko‘ra kompyuter kodlariga (dasturiy ta’minotga) o‘xshash axborot kodi bo‘lganligi sababli, ularni mualliflik huquqi ob’ekti sifatida e’tirof etish va Bern konvensiyasining “avtomatik himoya” (yaratilgan vaqtdan boshlab) prinsipini qo‘llash eng samarali muqobil yechim hisoblanadi. O‘zbekiston tajribasida (xususan, 2019-yilda tuzilgan Mualliflik va turdosh huquqlarni himoya qilish jamiyati faoliyatida) mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlar (CMO) mualliflar manfaatlarini individual himoya qilish qiyin bo‘lgan sharoitda eng kuchli mexanizm ekanligini isbotladi. Biroq, biologik va gen muhandisligi kabi innovatsion sohalarda mualliflik haqlarini yig‘ish va taqsimlash tizimi hali huquqiy mexanizmga ega emas.

QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH TAKLIFLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi intellektual mulk qonunchiligini xalqaro standartlar (TRIPS bitimi, Bern konvensiyasi va OECD tavsiyalari) darajasiga ko‘tarish hamda gen muhandisligi sohasidagi huquqiy bo‘shliqlarni to‘ldirish.
2. “Smart-kontrakt” va Blokcheyn asosidagi Yagona raqamli depozitariyni joriy etish.
3. Jamoaviy boshqaruv tashkilotlarini (CMO) tartibga solish bo‘yicha Hukumat qarorini qabul qilish.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston” , 2023. – 88 b. // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi (Lex.uz).
2. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi: Birinchi va ikkinchi qismlar. – Toshkent: “Adolat”, 2024. – 582 b. // Lex.uz milliy bazasi.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-42-son. 20.07.2006 y. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, // Lex.uz milliy bazasi
4. Bern Konvensiyasi: Berne Convention for the Protection of Literary and Artistic Works, 1886 (amaldagi Parij akti tahriri, 1971 y.). – Geneva: World Intellectual Property Organization (WIPO) WIPO Publication, 1992. – No. 287(E). – 54 p. wipo.int
5. TRIPS Bitimi: Agreement on Trade-Related Aspects of Intellectual Property Rights, 1994. – Marrakesh: World Trade Organization (WTO) Legal Texts Group, 1994. – 32 p. wto.org
6. CISAC Global Collections Report 2018. – Paris: International Confederation of Societies of Authors and Composers (CISAC) Publishing, 2018. – 42 p. cisac.org
7. Genetic Inventions, Intellectual Property Rights and Licensing Practices: Evidence and Policies. – Paris: OECD Publishing (IHTT nashriyoti), 2002. – Pp. 11–15. oecd.org
8. Rustambekov I. R. Intellektual mulk huquqi: Darslik. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2018.
9. Usmonov M. B. Biotexnologiya sohasidagi ixtirolarni huquqiy muhofaza qilish masalalari // TSUL Legal Report. – Toshkent: TDYU elektron jurnallar nashriyoti, 2021.